**TOSHKENT SHAHRI OLMAZOR TUMANI HOKIMINING**

# QARORI

2024-yil 26-avgust | 354-14-197-Q/24 | Olmazor tuman hokimligi

**Toshkent shahar hokimining 2024-yil 30-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Bino va inshootlarning zilzilabardoshligini oshirish hamda seysmik xavfni monitoring qilish faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 17-apreldagi PQ–161-son qarori ijrosi haqida”gi 293-14-0-Q/24-sonli qarori ijrosi to‘g‘rsida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 17-apreldagi “Bino va inshootlarning zilzilabardoshligini oshirish hamda seysmik xavfni monitoring qilish faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–161-son hamda Toshkent shahar hokimining 2024-yil 30-apreldagi 293-14-0-Q/24-sonli Farmoyishi ijrosini ta’minlash maqsadida,

**QAROR QILAMAN:**

1. Toshkent shahar hokimining 2024-yil 30-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Bino va inshootlarning zilzilabardoshligini oshirish hamda seysmik xavfni monitoring qilish faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 17-apreldagi PQ–161-son qarori ijrosi haqida”gi 293-14-0-Q/24-sonli qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur qarorga muvofiq:

2024-yil 1-iyuldan boshlab yangi qurilishi rejalashtirilayotgan xavflilik omili MSK – 64 toifa bo‘lgan ob’ektlarga bino va inshootlarning yuk ko‘taruvchi konstruksiyalarini avtomatik monitoring qilish uskunasini o‘rnatish majburiy etib belgilanganligi;

bino va inshootlarning yuk ko‘taruvchi konstruksiyalarini avtomatik monitoring qilish uskunalaridan olinadigan ma’lumotlarning yagona bazasini yuritish orqali monitoring qilish tartibi joriy etilishi;

seysmik xavfsizlikni ta’minlash hamda bino va inshootlarning zilzilabardoshligini oshirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi”;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar hamda Toshkent shahri bo‘yicha seysmik xavfsizlikni ta’minlashga qaratilgan hududiy chora tadbirlarni amalga oshirish rejalari (keyingi o‘rinlarda – hududiy chora-tadbirlar rejalari) tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Toshkent shahrida seysmik xavfsizlikni ta’minlash hamda bino va inshootlarning zilzilabardoshligini oshirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi” tasdiqlanganligi inobatga olinsin.

3. Olmazor tumani bo‘yicha seysmik xavfsizlikni ta’minlashga qaratilgan hududiy chora-tadbirlarni amalga oshirish rejasi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Olmazor tumani hokimining qurilish, uy-joy kommunal xo‘jaligi, transport va ekologiya masalalari bo‘yicha o‘rinbosari (D.Mirxalikov), tuman Favqulodda vaziyatlar bo‘limi (N.Xatamov) hamda tegishli korxona va tashkilotlar bilan birgalikda:

MSK-64 shkalasi bo‘yicha 8 va undan yuqori balli seysmik faol zonalarda yangi qurilishi rejalashtirilayotgan 5 qavatdan yuqori tibbiyot ob’ektlari hamda 9 qavatdan yuqori binolarni aktiv seysmik himoyalash qurilmalari, shu jumladan, seysmoizolyatsiya va dempfer uskunalari bilan loyihalash amaliyoti yo‘lga qo‘yishi bo‘yicha tegishli choralarni ko‘rsin;

aktiv seysmik himoyalash qurilmalarini o‘rnatish qurilish ishlariga mas’ul bo‘lgan buyurtmachi tashkilotlar tomonidan moliyalashtirilishini;

2024-yil 1-iyuldan boshlab MSK-64 shkalasi bo‘yicha 5 va undan yuqori balli yer silkinishi sodir bo‘lganda bino va inshootlarning holati bo‘yicha yuk ko‘taruvchi konstruksiyalarni avtomatik monitoring qilish uskunalaridan olingan ma’lumotlar tezkor ravishda tahlil qilinishini;

bino va inshootlarda aniqlangan xavf bo‘yicha zudlik bilan O‘zbekiston Respublikasi aholisi va hududining seysmik xavfsizligini ta’minlash tadbirlarini muvofiqlashtirish bo‘yicha Respublika kengashiga axborot kiritilishi belgilanganligini;

tuman hududida kuchli zilzilalarga tayyorgarlik ko‘rish ishlarini aniq ilmiy prognozlarga asosan tashkil etish maqsadida 2024-yil 1-maydan boshlab:

Favqulodda vaziyatlar vazirligi Seysmoprognostik monitoring respublika markazi (keyingi o‘rinlarda – Markaz) tomonidan zilzila xavfi va prognoziga oid xulosalarni har oyda tuman hokimligiga kiritish amaliyoti yo‘lga qo‘yilganligini inobatga olsin;

xulosalarda kuchli zilzila xavfi haqida ogohlantirish bo‘lganda, tuman hududida zilzilaga tayyorgarlik ko‘rish rejasiga muvofiq ishlarni tashkil etish choralarini ko‘rsin.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish Olmazor tumani hokimining qurilish, uy-joy kommunal xo‘jaligi, transport va ekologiya masalalari bo‘yicha o‘rinbosari D.Mirxalikov zimmasiga yuklansin.

**Tuman hokimi** **A. Umarxonov**

Olmazor tuman hokimining
2024-yil 26-avgustdagi
354-14-197-Q/24-son qaroriga
1-ilova

**Olmazor tumanida bo‘yicha seysmik xavfsizlikni ta’minlashga qaratilgan hududiy chora-tadbirlarni amalga oshirish**

**REJASI**

| T/r | Tadbirlar / loyihalar | Amalga oshirish bosqichlari | Amalga oshirish muddatlari | Moliyalashtirish manbalari | Ma’sul ijrochilar |
|---|---|---|---|---|---|
| **1** | Tuman aholisining barcha qatlamini hamda mahallalar kesimida zilziladan oldin, zilzila paytida va zilziladan so‘ng harakat qilish qoidalariga o‘rgatish va ularning tayyorgarligini oshirish. | 1. Mahallalar kesimida ko‘rgazmali materiallar, videoroliklar, uslubiy qo‘llanmalarni tarqatish hamda o‘quv amaliy mashg‘ulotlari orqali zilziladan oldin, zilzila paytida va zilziladan so‘ng to‘g‘ri harakat qilish qoidalariga o‘rgatish ishlarini tashkil qilish.<br>2. Amalga oshirilgan ishlarni Zilzila muhandisligi olimlari assotsiatsiyasida muhokamadan o‘tkazish<br>3. Toshkent shahrida istiqomat qiladigan barcha aholi qatlamini zilzilada to‘g‘ri harakat qilishga o‘rgatish ko‘rsatkichini (qamrab olish darajasini) 100 foizga yetkazish. | 2024-2026-yillar<br><br>2024-2026-yillar davomida<br>2026-yil dekabr | Mahalliy byudjet va byudjetdan tashqari mablag‘lari hamda homiylik mablag‘lari | Olmazor tumani hokimi o‘rinbosari (D.Mirxalikov), Olmazor tumaniFVB (N.Xatamov), Tegishli korxona va tashkilotlar |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| **2** | Seysmik xavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha davlat organlari rahbar kadrlari va xodimlarining Aholini zilzila sharoitida harakatlanishga tayyorlashga mo‘ljallangan milliy elektron platforma (keyingi o‘rinlarda — platforma) orqali malakasini oshirish va qayta tayyorlash kurslarini tashkil etish. | 1. Tumandagi davlat organlarining rahbar kadrlari va xodimlarining ro‘yxatini shakillantirish.<br>2. Ro‘yxat asosida platforma orqali malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslarini 2024-2026-yillarda tashkil etish bo‘yicha reja-grafik ishlab chiqish.<br>3. Platforma orqali malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslarini tashkil qilish | 2024-yil iyun<br><br>2024-yil iyul<br><br>Reja grafigi asosida | Tashkilotlarga ajratilgan mablag‘lar | Olmazor tumani hokimi o‘rinbosari (D.Mirxalikov), Olmazor tumaniFVB (N.Xatamov), Tashkiliy kadrlar guruhi rahbari (K.Xabibullayev) Tegishli korxona va tashkilotlar |
| **3** | Tumanda ta’lim tashkilotlarda seysmik xavfsizlikni ta’minlash sohasida faoliyat yurituvchi ilmiy-tadqiqot institutlari olimlari va malakali mutaxassislarni jalb qilgan holda davra suhbatlari tashkil etish | 1. Davra suhbatlari o‘tkazilishi rejalashtirilgan ta’lim tashkilotlari ro‘yxatini shakillantirish.<br>2. Shakllantirilgan ro‘yxat asosida 2024-2026-yillarga mo‘ljallangan reja-grafikni tasdiqlash.<br>3. Reja-jadval asosida tumanda joylashgan ta’lim tashkilotlarida o‘quvchi va talabalar uchun ularga seysmik xavfsizlikni ta’minlash va zilzilalar haqida tushunchalar berish maqsadida sohada faoliyat yurituvchi ilmiy-tadqiqot institutlari olimlari va | Reja jadvali asosida | - | Olmazor tumani hokimi o‘rinbosari (D.Mirxalikov), Olmazor tumaniFVB (N.Xatamov), Tuman Maktabgacha va maktab ta’lim bo‘limi |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | malakali mutaxassislar ishtirokida davra suhbatlarini tashkil qilish.<br>4. Amalga oshirilgan ishlarni Zilzila uhandisligi olimlari ssotsiatsiyasida muhokamadan o‘tkazish. | | | |
| **4** | Toshkent shahridagi Pasportbino.uz platformasiga kiritilgan 9176 ta mavjud tumanga tegishli bo‘lgan ko‘p kvartirali uy-joylarning seysmik ustahkamligini doimiy nazorat qilib borish | 1. Toshkent shahridagi Pasportbino.uz platformasiga kiritilgan mavjud ko‘p kvartirali uy-joylarning seysmik mustahkamligini Pasportbino.uz platformasida qayta ko‘rib chiqish<br>2. Xatlov natijalariga ko‘ra aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish choralarini ko‘rish.<br>3. Pasportbino.uz platformasiga kiritishda kelib chiqqan muammolarni bartaraf etish va shahardagi ko‘p kvartirali uy-joylarning elektron texnik pasportlarini 100 foizga yetkazish.<br>4. Seysmik zaif hisoblangan ko‘p kvartirali uy-joylarni bosqichma-bosqich instrumental-texnik tekshiruvdan o‘tkazish. | 2024-yil may<br><br>2024-yil iyun<br><br>2024-yil iyul<br><br>Har yarim yilda<br><br>Har yil yakuniga qadar | Tuman mahalliy byudjeti mablag‘lari hamda boshqaruv servis ompaniya larning mablag‘lari | Olmazor tumani hokimi o‘rinbosari (D.Mirxalikov), Olmazor tumaniFVB (N.Xatamov), Tuman uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish bo‘limi (S.Saidnazarov), Olmazor tumani Kadastr bo‘limi (A.Qosimov) |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | 5. Instrumental-texnik tekshiruvdan o‘tkazilgan seysmik zaif ko‘p kvartirali uy-joylarni bosqichmabosqich mustahkamlash choralarini ko‘rish. | | | |
| **5** | Tumandagi sun’iy inshootlar-ning (ko‘priklar, tonnellar, estaka-dalar, temir yo‘l ko‘priklari va boshqalar) ta’mirtalab va yaroqsiz holatda bo‘lganlarini qayta ta’mir-lash hamda kuchaytirish chora-larini ko‘rish | 1. Toshkent shahridagi barcha sun’iy inshootlarni Pasportbino.uz platformasida qayta ko‘rib chiqish.<br>2. Ta’mirtalab va yaroqsiz holatdagi sun’iy inshootlarni aniqlash va ro‘yxatini tuzish.<br>3. Ta’mirtalab va yaroqsiz holatdagi sun’iy inshootlarni kelgusi yillarda investitsiya dasturlariga kiritish choralarini ko‘rish. | 2024-yil iyun<br><br>2024-yil iyul<br><br>2024-2026-yillar | - | Olmazor tumani hokimi o‘rinbosari (D.Mirxalikov), Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi (A.Abdusamatov), Tegishli korxona va tashkilotlar bilan birgalikda |
| **6** | Tumanda zilzilalar haqida erta ogohlantirish milliy tizimi hamda «Kuchli zilziladan ogohlantirish» mobil ilovasini ishlatish bo‘yicha taqdimot o‘tkazish | 1. Tumandagi tashkilotlarning taqdi-motda qatnashuvchi xodimlari ro‘yxatini shakllantirish<br>2. Respublikada kuchli zilzilalar haqida erta ogohlantirish milliy tizimi hamda «Kuchli zilziladan ogohlantirish» mobil ilovasini ishlatish bo‘yicha taqdimot o‘tkazish. | 2024-2026-yillar davomida | - | Olmazor tumani hokimi o‘rinbosari (D.Mirxalikov), Olmazor tumaniFVB (N.Xatamov), |